

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Fizika – matematika fakulteti

“Axborot texnologiyalari” kafedrası

Raxmatova Shaxlo Erkin qizi

Adobe Indesign dasturida ishlash bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma yaratish

5111000-Kasb ta'limi(5330200-Informatika va axborot texnologiyalari) ta'lim
yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

“Ish ko'rildi va himoya qilishga
ruxsat berildi”

Kafedra mudiri.

_____ dots. O.I.Jalolov

«_____» _____ 2019 y.

Ilmiy rahbar _____ katta o'qit. X.U.Xayatov
“_____” _____ 2019 y.

Taqrizchi _____ dots. F.R.Muradova
“_____” _____ 2019 y.

“Himoyaga ruxsat berildi”

Fakultet dekani _____ p.f.n. dots.M.I.Daminov

“_____” _____ 2019 y.

Buxoro - 2019 yil

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. ABOBE INDESIGN MUHITIDA BILAN TANISHISH	7
1.1. Abobe Indesign dasturi bilan tanishish	7
1.2. Obyektlar, geometrik figuralar. Transformatsiya.....	17
1.3. Matnlar bilan ishlash	32
II BOB. ABOBE INDESIGN MUHITIDA ISHLASH	47
2.1. Ko`p sahifali hujjat	47
2.2. Stillar, yaratish va ishlatish.....	57
2.3. Kitoblar va kutubxonalar.....	77
XOTIMA	89
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	90

KIRISH

“Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og’ishmasdan, qat’iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida butun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko’taramiz.”

Sh. M. Mirziyoyev

2017 yil 20 aprelda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Ushbu qaror oliy ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi ustuvor vazifalarga mos holda, kadrlar tayyorlashning ma’no-mazmunini tubdan qayta ko‘rib chiqish, xalqaro standartlar darajasida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratish maqsadiga yo‘naltirilgan.

Qarorga ko‘ra, oliy ta’lim tizimini kelgusida kompleks rivojlantirishning muhim vazifalari belgilab berildi. Qarorda belgilangan vazifalarning samarali yechimini to‘liq ta’minlash maqsadida oliy ta’lim darajasini sifat jihatdan oshirish va tubdan takomillashtirish, oliy ta’lim muassasalari moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va modernizatsiya qilish, ularni zamonaviy o‘quv-ilmiy laboratoriyalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalar bilan jihozlash maqsadida Oliy ta’lim tizimini 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan kompleks rivojlantirish dasturi tasdiqlandi.

Dasturga muvofiq, 2017-2021 yillarda 48 ta oliy ta’im muassasasida jami 180 ta o‘quv, ilmiy-laboratoriya binosi, sport inshootlari va ijtimoiy-muhandislik infratuzilmalari ob’ektlarida qurilish, rekonstruksiya va kapital ta’mirlash ishlari olib boriladi. Shuningdek, 53 ta oliy ta’lim muassasasida 400 ta o‘quv laboratoriyasi bosqichma-bosqich eng zamonaviy o‘quv-laboratoriya uskunalari bilan jihozlanadi, 7 ta oliy ta’lim muassasasida barcha oliy ta’lim muassasalari o‘zaro hamkorlikda foydalanadigan ilmiy laboratoriyalar tashkil etiladi.

Qarorning yana bir muhim jihati shundaki, mamlakatimiz Prezidenti tomonidan har bir oliy ta'lim muassasasi bo'yicha konkret parametr va ko'rsatkichlarni o'z ichiga olgan manzilli rivojlantirish dasturlari tasdiqlandi.

Mazkur dasturda asosan mamlakatimizning har bir oliy ta'lim muassasasi bilan, xususan, AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Niderlandiya, Rossiya, Yaponiya, Janubiy Koriya, Xitoy va shu kabi boshqa davlatlarning yetakchi ilmiy-ta'lim muassasalari bilan hamkorlik aloqalarining o'rnatilgani o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Shu asosda har yili 350 nafardan ortiq xorijlik yuqori malakali pedagog va olimlarning mamlakatimiz oliy o'quv yurtlariga o'quv jarayoniga jalb etilishi ko'zda tutilmoqda.

Shu o'rinda aytish lozimki, Oliy ta'lim tizimini 2017-2021 yillarga mo'ljallangan kompleks rivojlantirish dasturini amalga oshirish uchun yo'naltiriladigan moliyaviy mablag'lar 1,7 trillion so'mdan ziyod bo'lib, ulardan 1,2 trillion so'mi o'quv-laboratoriya binolari, sport zallari va talabalar turarjoylarini rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlashga, 500 milliard so'mdan ortiq mablag' esa o'quv-laboratoriya uskunolari, mebel va inventar bilan ta'minlash, umumiy tartibda foydalanishga mo'ljallangan, barcha ta'lim muassasalariga xizmat ko'rsatadigan laboratoriya komplekslarini tashkil etish hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirishga sarflanadi. [1]

Mavzuning dolzarbligi. Keyingi yillarda amaliy dasturchilarga juda ko'p integratsion dastur tuzish muhitlari taklif etilmoqda. Bu muhitlar u yoki bu imkoniyatlari bilan bir-biridan farq qiladi. Shu bilan birgalikda grafik interfeysga ega bo'lgan dasturlar soni ham kundan-kunga ortib bormoqda. Nashriyot uchun foydalaniladigan dasturlar turkumiga kiruvchi Adobe InDesign dasturi shular jumlasiga kiradi. Adobe InDesign dasturida ishlash bo'yicha o'quv uslubiy qo'llanma o'zbek tilida mavjud emasligi mavzuning dolzarblidir.

Bitiruv malakaviy ishimizning maqsad va vazifalari. Adobe InDesign dasturining barcha imkoniyatlari bilan yaqindan tanishish va uning boshqa grafik interfeysga ega dasturlar bilan umumlashtiruvchi va farqli tomonlarini solishtirib

o'rganish. Adobe InDesign dasturi orqali jurnallarga muqova tayyorlashni o'rganish.

Bitiruv malakaviy ishimizning o'rganilganlik darajasi. Adobe InDesign dasturining interfeysi bilan to'liq tanishib chiqilgan. Unda bajarilgan amaliy ishlarning bir qanchasi o'rganib chiqilgan va o'quv uslubiy qo'llanma tayyorlangan.

Bitiruv malakaviy ishimizning predmeti. Adobe InDesign dasturi, matnlar, ranglar, ko'p sahifali hujjatlar, stillar yaratish, kitoblar va kutubxonalar bilan ishlovchi komponentlar.

Bitiruv malakaviy ishimizning obyekti. Adobe InDesign dasturi, unda kitob va jurnallar yaratish uchun foydalaniladigan buyruqlar.

Bitiruv malakaviy ishimizning ilmiy farazi. Adobe InDesign dasturida ishlash bo'yicha o'quv uslubiy qo'llanma yaratish orqali ta'lim jarayonida bu dasturning imkoniyatlarini ochib berish. Ta'lim jarayonini yanada yuksaltirish, yangi usul va vositalarini yaratish, o'quv jarayonining samaradorligini oshirish.

Bitiruv malakaviy ishimizning yangiligi. Bugungi kunga qadar Adobe InDesign dasturida o'zbek tilidagi ma'lumotlar yetarli darajada emas. Bu dastur bo'yicha o'zbek tilida o'quv uslubiy qo'llanma yaratish va o'quv jarayoniga qo'llash bitiruv malakaviy ishimning yangiligi hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishimizning amaliy ahamiyati shundan iboratki, bu o'quv uslubiy qo'llanma amaliyotda qo'llanilsa, nashriyot tizimida jurnal kitoblarning yuz qismini tayyorlash jarayoni ancha oson kechadi.

Bitiruv malakaviy ishimizning metodologik asosini uning tarkibiy qismi, undagi o'quv va didaktik vositalarning jamlanganligidir. Bu o'quv uslubiy qo'llanma ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda ham amaliy ahamiyat kasb etadi.

Bitiruv malakaviy ishimizning metodlari. Adobe InDesign dasturida ishlash bo'yicha o'quv uslubiy qo'llanma yaratish va undan nashriyot tizimida keng ko'lamda mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibi va hajmi quyidagicha. Kirish, 2 ta bob, har bir bobning qisqacha xulosasi, adabiyotlar ro'yxati, xotimadan iborat bo'lib jami 90 betga bayon qilingan. I bobda Adobe InDesign dasturi bilan tanishish, obyektlar, geometrik figuralar, matnlar bilan ishlash bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

II bobda ko'p sahifali hujjat, stillar yaratish va undan foydalanish, kitoblar va kutubxonalar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kirish qismi 4 betdan iborat , tushuntirish qismi 80 betdan iborat. Bitiruv malakaviy ishida 9 ta adabiyotdan foydalanildi.

Ilovalar paneli asosiy menyuning tepasida joylashgan va ba'zi bir oynalarning sozlamalariga kirishni tezkorlik bilan ta'minlaydi (masalan, asosiy ekran sozlamalari, hujjatlarni oynaga joylashtirish va ish joyining asosiy konfiguratsiyalari);

Bu yerdan, Adobe Bridge dasturini tez chaqirish mumkin, qaysisi Adobening turli dasturlarda yaratilgan tasvirlarni ko'rish, almashtirish va sinxronlashtirishni ta'minlaydi.

Asboblarni paneli dasturda ishlatilgan barcha asosiy vositalarni birlashtiradi.

Boshqarish (nazorat) paneli har qanday ob'ekt bilan bog'liq asosiy parametrlarni o'z ichiga oladi: hajmi, joyi, rangi, va hokazo; boshqaruv paneli maydonlari turli asboblarni uchun bir oz farqlanadi.

Palitralar dasturning buyruqlar va vositalarining asosiy ma'lumotlariga, batafsil sozlamalariga tezkor kirishni ta'minlaydi.

Hujjat oynasi hujjatning ish maydoni va u haqida asosiy ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.


Ish maydoni va sahifalar – to'g'ridan-to'g'ri dastur oynasining bir qismidir va maket ustida ishlash uchun mo'ljallangan, chunki publikatsiyani shakllantirish uchun aynan shu erda biz barcha matnlarni, rasmlarni, multimedia materiallarini va boshqalarni joylashtiramiz. [2]

Dasturning ish sohasi (Workspace). Tahrirlash, sozlash, saqlash

Dastur oynasining barcha elementlari "*Ish maydoni*" deb ataladi. Ish maydonini yechlayotgan masalaga qarab, o'zgartirish mumkin. Masalan, ekranda faqat tez-tez ishlatib turadigan palitralarni saqlash mumkin: ularning joylarini almashtirish, ekrandan yig'ish, kichiraytirish yoki butun ekranda ko'rsatish, hujjatlar oynalarning nisbiy pozitsiyasini o'zgartirish va hokazo. Siz o'zingiz uchun moslashtirilgan ish maydonni saqlang va kerak bo'lganda uni ekranga chakiring.

O'z ish maydongizni saqlash uchun quyidagi buyruqni bajaring **Window>Workspace> New Workspace** (Oyna> Ish maydoni> Yangi ish maydoni) nomlang va sozlamalarini belgilang (panellarning faqat joyini saqlash

kerakmi yoki asosiy menyuning qo'shimcha parametrlarini ham saqlash). Odatda taklif etiladi “all” (hammasini) saqlash (1.2-rasm).



1.1.2 – rasm. Ish sohasini saqlash.

Ish maydonining tayyor konfiguratsiyasini tanlashingiz mumkin:

Typography (Matn bilan ishlash), **Printing and Proofing** (bosmaga tayyorlash) va hokazo.

Bizning o'quv vazifalarimiz uchun biz **Advanced** (kengaytirilgan) konfiguratsiyani ishlatamiz. Agar ba'zi bir standart sozlamalarni qayta tiklash kerak bo'lsa, bunda quyidagi ketme-ketlikni bajaring: **Window>Workspace>Reset Advanced** (Oyna> Ish maydoni> Tanlangan ish maidonini tiklash).

Oyna>Ish maydoni> ni tanlab, Maxsus tanlangan ish maydonni o'chirishingiz mumkin, unda **Window>Workspace>Delete Workspace** (Oyna > Ish maydoni> Ish maydonini o'chirish) ketma-ketlikni bajaring.

Palitralar bilan ishlash


Palitralar asosiy asboblarga va sozlamalarga tez kirishni ta'minlaydi:

Odatda palitralar mavzular asosida guruhlariga to'planadi.

Masalan: **Stroke (Satr)/Swathes (Namunalar) / Gradient (Gradient).**

Guruhlar ekranning o'ng tomonida bir stekga to'plangan bo'lib, asboblar panelniga qarama-qarshi joylashgan. Ushbu stek interfeys elementlardan iborat bo'lgan “ramkani” yakunlaydi (o'ng tomondagi asboblar paneli, boshqaruv paneli va bosh menyu o'ngdagi palitrani yuqorisida yoki pastiga joylashgan). Buni interfeysning kerakli elementini topishini osonlashtiradi va u egallagan maydonning hajmini kamaytiradi.

Palitrani standart majmui tanlangan ish maydoniga qarab o'zgaradi (1.3-rasm). Har bir ish maydoni, standart yoki maxsus, nafaqat ko'rsatilgan palitralar ro'yxatini o'z ichiga oladi, hamda ularning joylashuvini va holatini ko'rsatadi.



1.1.3 – rasm. Palitrani standart joylashuvi

Barcha palitralar guruhdan va steklardan ajralishi mumkin, ularni yig'ish va ochish, boshqa guruhlarga qo'shish yoki alohida dastur oynasiga joylashtirish mumkin.


Joyini tejash uchun hozirda ishlatilmaydigan palitrani yig'ib qo'yish mumkin. Buni amalga oshirish uchun Expand Panels (Palitrani kengaytirish) ikkilangan ko'rsatgich har bir palitrani yuqori o'ng burchagida joylashgan (1.5-rasm).



1.1.4-rasm. Stekdagi ochilgan holdagi palitra

Uskunalar paneli

Asboblar panelida (1.1.5-rasm) dasturda ishlash uchun zarur bo'lgan barcha asosiy vositalar joylashgan. Palitralar kabi ular mavzular bo'yicha guruhlangan: alohida – ob'ektlarni tanlash vositalari, alohida - matn bilan ishlash va rasm chizish uchun va oxirgisi – bu xizmatchi guruh: navigatsiya, ko'rinish masshtabi va atributlarni tezkor nushalash.



1.1.5 – rasm. Uskunalar paneli haqida batafsil ma'lumot

Odatda asboblar paneli dastur oynasining chap tomonida joylashgan. Panelning yuqori qismidagi ikkilangan ko'rsatgich joylashgan, uning yordamida asboblarni ochib, ikkita qatorda terish mumkin (nisbatan kichik ekranlar uchun qulay, masalan, noutbuk bilan ishlaganda) yoki birta qatorda ko'rsatish mumkin, bunda oynada ish maydoni kattalashadi


Agar kerak bo'lsa, ekranda asboblar panelini ko'chirish mumkin, sarlavha qismidagi juft nuqtali chiziqni ushlab panelni ko'chiring. Panelning ko'chishi va

joyiga qaytib kelishi, barcha boshqa plitralar bilan bir xil. Palitraning "suzuvchi" holatida ikkitalik ko'rsatgich bosilsa, bunda asboblari paneli gorizontal holatga keladi (rasm 1.1.6).



1.1.6 – rasm. Gorizontal holatda

Kursorni asbob belgisi ustiga joylashtirsangiz yordamchi so'zlar (podskazka) paydo bo'ladi: asbob nomlari va uni chaqirish uchun klaviatura tugmachasi ko'rsatiladi (1.1.7-rasm).



1.1.7 – rasm. Uskunalar panelida yordamchi so'z (podskazka).

E'tibor bering, ba'zi tugmachalarning pastki qismida kichkina qora uchburchak joylashgan. Bu degani, bu tugma ostida bir nechta uskunalar mavjud. Yashirilgan elementlarni ko'rsatish uchun, <Alt> tugmachasini bosib turib, tugmani bir necha marta bosish kerak yoki sichqoncha tugmasini bosib ushlab turing, asboblari ro'yxati ochiladi, undan keraklisini tanlang. Yangi uskunani tanlaganicha, tanlagan uskuna ko'rsatilib turadi.

Nazorat paneli (Boshqaruv palitrasi)

Nazorat paneli (**Window > Control** (Oyna > Nazorat paneli)) asosiy sozlamalarga va buyruqlarga tezkor ruxsatni beradi, qaysilari alohida ob'ekt bilan bog'langan bo'ladi. Tanlangan asbobga qarab, panel umumiy sozlamalarni va asosiy transformatsiyalarni (o'zgarishlarni) yoki **Текст**- asbobi uchun mo'ljallangan, matnni formatlash uchun buyruqlarni o'z ichiga oladi (1.1.8, 1.1.9-rasm).




1.1.8 – rasm. Selection Tool uskunalar panelining boshqaruv paneli



1.1.9 – rasm. Text Tool uskunalar panelining boshqaruv paneli

Odatda panel oynaning tepasida joylashadi (**Dock at Top**), ammo uni oynaning pastiga ham qoʻchirish mumkin (**Dock at Bottom**) yoki panelni “suzuvchi” (**Make Floating**) ham qilish mumkin, bunda kontekst menyuning muvofiq buyruqlari ishlatiladi (1.1.10-rasm).




1.1.10-rasm. Boshqaruv panelini kontekst menyusi

Hujjatni yaratish va sozlash.

Hozirgacha, dasturning turli vositalarini koʻrib chiqqach, biz avval tuzilgan hujjatlarni ochib ulardan foydalandik. Endi oʻz hujjatingizni qanday yaratishni koʻrib chiqamiz.

Yangi fayl, odatdagidek, **File>New** (Fayl>Yaratish) (<Ctrl>+<N>) buyrugʻi bilan yaratiladi. Hujjat yaratish muloqot oynasi ochiladi. (3.7-rasm)



1.1.11-rasm. Hujjat yaratish dialogi.


Hujjatni yaratishda e'tibor berishingiz kerak bo'lgan asosiy maydonlar va parametrlar quyidagilardir:

- **Document Preset** (Hujjatni avvaldan sozlash) – maydon sizga har safar oldindan yaratilgan va saqlangan, ularni qayta tiklanmasdan, bir qator parametrlardan foydalanishga imkon beradi;
- **Intent** (Tayinlash) - biz bu yerda bosib chiqarish turini tanlaymiz: bosib chiqarish (Print) yoki elektron (umumiy-Web);
- **Number of Pages** (Sahifalar soni) - hujjatning sahifalar istalgan sonini belgilaydigan maydon. Avvaliga 3 belgilamiz va ish jarayonida ularni qo'shishingiz yoki o'chirishingiz mumkin;
- **Facing Pages** (Ichki betlarni ko'rsatish) - hujjatning sahifalarini (kitoblarda bo'lgani singari) juft-juftlar bilan tartibga solish uchun ruxsat. Bayroqcha o'chirigan bo'lsa hujjatning sahifalari ekranda birma-bir ko'rsatiladi;
- **Master Text Frame** (Shablondagi matnning freymi) – matn uchu tayor joyini belgilaydi, bu maydon biz uchun juda foydali, matnni tezda ko'p sahifada joylashtirish kerak bo'lganda. Bu sozlamani xozircha yoqmaslik ham mumkin. Ochiladigan *standart o'lchamlar* ro'yxat chop etiladigan kattaliklarni o'z ichiga oladi. **Widht** (Kenglik) va **Height** (Balandlik) maydonlariga ularning qiymatlari va tanlangan o'lchov birliklari kiritiladi – odatda millimetrlar. Agar sizning nashringiz nostandart kattalikka ega bo'lsa, siz faqatgina kenglik va balandlik qiymatlarni kiritishingiz kerak va keyin sozlamalarni saqlab qo'yishingiz kerak (**Save Preset**).
- **Orientation** (Sahifalarning o'rnashish tartibi) - hujjatlarning yo'nalishini aniqlash: vertikal yoki gorizontal (**kitobli yoki albomli**);
- **Columns** (Ustunlar) - ustunlar sonini sozlash (**Number**) va ular orasidagi masofa (**Gutter**); [3]

Izoh: Bu yerda o'rnatilgan parametrlar hujjatlarning barcha sahifalariga qo'llaniladi. Agar nashrda turli ustunlar soni bilan tayorlansa, bu yerda bir soni qoldirilgani yaxshiroqdir, keyin siz turli sahifalarni alohida so'zlashingiz bo'ladi.

– **Margins** (Maydon kattaliklari) - nashrning barcha maydonlar o'lchamlari. Agarda siz ichki betlarni ko'rsatishga ruxsat bersangiz, quyidagi sozlamalar amallanadi: **Outside** va **Inside** – tashqi va ichki hoshiyalari, agarda hujjatda ichki betlar bo'lmasa bo'lmasa, unda **Left** va **Right** – o'ng va chap so'zlamalari ishlatiladi.

Endi ko'rib chqamiz, **More Options** (Qo'shimcha sozlamalar) tugmasi nimani ochadi. Bu yerda biz o'lchamni kiritish maydonini topamiz **Bleed** (Kesish uchun joy tashlash) (1.1.12-rasm).



1.1.12-rasm. **Bleed** va **Slug** maydoni.

Ular nima uchun kerak? Haqiqatdan ham, faylni tayyorlash jarayonida hujjatni kesish uchun qurilmaning xatosini hisobga olish kerak. Odatda pichoq 2-3 millimetrga siljishi mumkin, yoki chetga chiqib ketadi va shu erda oq, tekis bo'lmagan chiziq paydo bo'ladi. Aynan bunday chiziqning paydo bo'lishidan, kesish uchun tashlash sozlamasi bizlarni asraydi – asl hajmini oshirish, har tomondan bir necha millimetrga (odatda 2-5 mm), kesish orqali ortiqchasi yo'qoladi. Bunga kora sahifaning barcha elementlari sahifa chekkasiga yopishgan (fotosuratlar, rangli plitalar) chegaradan chiqib, kengaytirish chegarasigacha borib yetadi (hujjat oynasida ko'k chiziq bilan ko'rsatilgan). **Bleed** doirasidan tashqari

joylashgan barcha narsalar bosib chiqarilmaydi. Qirqib olinganidan so'ng bosib chiqariladigan hujjatni ko'rish uchun <W> tugmachasini bosib lozim.

Slug parametri (Kesish uchun joy) - ichki tarkibiy qism bo'lib, uning ichida maket tarkibidagi barcha muhim elementlar kirishi kerak – matnlar, bezakli detallari, sahifalar soni. Hujjat uchun keng joylar maydonlar belgilansa, **Slug** parametri juda muhim emas va uni inkor qilish mumkin.

OK ni bosib, hujjat oynasiga o'tamiz. Yaratish oynasida ko'rgan asosiy sozlamalarni o'zgartirish zarur bo'lsa, nima qilish kerak?

Quyidagi sozlamalar bilan hujjat yaratish :

-**Intent**=Print;

-**Size**=A4;

-**Number of pages** = 3;

-**Fasing Pages**;

-**Number of Columns**=2;


-**Gutter** =5mm;

-**Margins Inside = Outside = Top = Bottom** = 20mm;

-**Bleed** = 5mm.


Hujjatni yaratganingizdan so'ng, muhokoma qilingan sozlamalar ikki guruhga bo'linadi: birinchisi - muloqot oynasidagi **Document Setup** (Hujjat sozlamalari) **Fayl** menyusida va ikkinchisi – **Margins va Columns** (Kolonkalar va maydonlar) oynasidagi **Layout** menyusida joylashgan.

File > Document Setup (Hujjat sozlamalari) oynasida, ustunlar sonini va maydonlarning o'lchamidan tashqari barcha so'zlamalar kirdi (3.9-rasm). Ish jarayonida zarur bo'lganda siz – bizga tanish bo'lgan **More Options** tugmasini bosib, qo'shimcha joy qiymatini (**Bleed**) o'zgartirishingiz mumkin.



1.1.13-rasm. Document Setup oynasi.

Ustunlar soni va maydonlar kattaligi alohida ravishda sozlanadi (3.10-rasm). Ushbu parametrlarning qiymatiga kirish uchun **Layout > Margins and Columns** (Maket > Kolonkalar va maydonlar) buyrug'i beriladi.



1.1.14-rasm. Margins va Columns oynasi.

Bu holda ushbu oynada kiritilgan qiymatlar faqat tanlangan sahifaga amal qilinadi. Bu ko'p sahifali hujjat bilan ishlashda qiyinchiliklarni tug'diradi: ustunlarni sozlash uchun har bir sahifada ushbu oynaga yana qaytasiz. Vazifani soddalashtira olasiz: biz bu haqida keyinroq muhokama qiladigan *master-shablondan* foydalanishingiz kerak.[3]


1.2. Obyektlar, geometrik figuralar. Transformatsiya

Geometrik shakllar yaratish vositalari

Geometrik shakllar har qanday maketning asosiy dizayn elementlari. Nashr butunlay suratlarsiz bo'lishi mumkin, juda ham sodda bo'lishi mumkin, lekin hech bo'lmaganda sahifa raqami ustida bitta chiziq yoki ro'yhat belgilarini aks ettirish, boshqa sodda belgilar qo'yilgan bo'lsa, bunda hujjat maketi darrov o'zgaradi va o'z ko'rinishiga ega bo'ladi. Agar jurnallar, reklama, ma'lumotnoma materiallari

haqida gap yuritsak, bunda bilamiz ularda albatta har qanday rasmlar, shakllar, ramkalar ishlatiladi, chunki bunday dizayn e'tiborni o'ziga tortadi.

InDesign CS5 turli xil geometrik vositalari bilan maqtana olmaydi, ammo bu tayyor shakllarni o'zgartirish uchun imkoniyatlari bilan boy. (2.1 -rasm).




1.2.1 –rasm. Geometrik figura yaratish uskunalari

"Taxminan" shakllar yaratish vositalari

Rectangle Tool (To'rtburchak) (<M>) to'rtburchaklarni hosil qiladi; odatiy chizish usuli – taxmin qilingan ustgi chap burchagda sichqonchaning chap tugmasini bosib turib, diagonal bo'yicha torting. Shakl kerakli kattalikga ega bo'lgandan keyin, sichqonchani qoyib yuboring.

Bunda <Shift> tugmachasini bosib tursangiz, kvadrat yaratiladi, <Alt> tugmachasini bosib tursangiz – chizish ob'ektning markazidan kelib chiqadi (2.2-rasm).




1.2.2-rasm. Geometrik uskunalar uchun klaviatur-modifikatsiyasi

Agar rasm chizish jarayonida $\updownarrow$, $\downarrow$, $\leftrightarrow$, $\leftarrow$ tugmachalari bosib turilsa, bunda sichqoncha bilan ajratilgan maydon bir xil to'rtburchaklar bilan teng ravishda to'ldiriladi, ular ustun yoki satr bo'lib joylashadi. Sahifani bezash uchun juda qulay imkoniyat, masalan, sahifaning butun kengligi yoki uzunligi bo'yicha "nuqta chiziq"ni chizish.

To'rtburchak (Прямоугольник) vositasini tanlang va gorizontal cho'zilgan rasmni chizing; sichqoncha tugmachasini bosib turib, klaviaturadagi

↔, tugmachasini bosib va chizilgan to'rtburchak kichik kvadratchalar bilan to'ldiriladi (2.3-rasm).



1.2.3-rasm. Strelka tugmasi orqali bir xil elementlarni chizish

Vazifani vertikal to'rtburchak uchun takrorlang, bunda <↑> tugmasini bosib.

Ellipse Tool (Ellips) (<L>) ellipslarni chizadi. Modifikator-tugmalar oldindagiday <Shift> doira hosil qiladi, <Alt> markazdan chizadi. Klaviaturadagi <↑>, <↓>, <→>, <←> tugmalar ellipslar uchun, xuddi to'rtburchaklar uchun ishlaydi.

Poligon Tool (Ko'pburchak) ko'pburchaklarni chizadi, sukut bo'yicha – oltiburchaklarni chizadi. Tomonlarning sonini asbob sozlamalarida tahrir qilish mumkin. Modifikator-tugmalar boshqa asboblardan bir xil.


Line Tool (Chiziq) (<\>) to'g'ri chiziqlarni hosil qiladi. <Shift> tugmachasi bosib turilsa, kesiklar qat'iy gorizontal, qat'iy vertikal yoki 45 ° nishabda bo'ladi.[4]

Berilgan parametrlar bilan geometrik shakllarni chizish

Ko'pgina hollarda aniq berilgan o'lchamlar bilan geometrik shakllarni chizish talab etiladi. Bu yerda ko'plab yo'llanmalarni tuzish mumkin, (<Ctrl> + <U>) bog'lamni sozlash va shunday qilib kerakli natijani olish. Lekin asboblarning dialog oynalari orqali natijani olish tezroq bo'ladi.

Chizma asbobining dialog oynasi tanlangan asbob bilan ishchi maydonni bosib orqali chaqiriladi (1.2.4-rasm).

Har bir asbobning oynasi o'ziga xos sozlamalarni o'z ichiga oladi: to'g'rito'rtburchak ellips uchun – uzunlik va kenglik, ko'pburchak uchun – qo'shimcha tomonlarning soni va "yulduz" shakli (1.2.5-rasm).



1.2.4-rasm. Ellipse uskunasining oynasi. 1.2.5-rasm. Ko'pburchak uskunasining oynasi

1. **Polygon Tool** (ko'pburchak) vositasi tanlang, betning ustiga sichqoncha bilan bosib va dialog oynasida uzunligi va kengligi 50 mm belgilang, tomonlar sonini —16, "yulduz" darajasini – 10 deb belgilang. OK bosib.
2. Turli xil sozlamalar bilan bir necha marta takrorlang.
3. To'rtburchak va ellips (**Прямоугольник, Эллипс**) asboblari oynalari bilan tajriba qiling.

Endi, asosiy shakllar qanday yaratilganligini bilib, ularning o'zgartirilishini va ular asosida murakkab va qiziq yangi shakllarni yaratishini ko'rib chiqish mumkin.

Geometrik ob'ektlarning shaklini tuzatish


Ob'ektlarning shaklini o'zgartirish uchun asosiy vosita — **Pathfinder** palitrasi (konturlarga ishlov berish) (1.2.6-rasm).



1.2.6-rasm. **Pathfinder** palitrasi


Palitraning yuqori qismi alohida kontur bilan ishlash uchun mo'ljallangan. Yuqori qismdagi buyruqlar:

- **Join Path** (ulanish) birta yoki bir nechta konturning ikkita so'nggi nuqtasini birlashtiradi;
- **Open Path** (ochish) yopiq konturni ochadi (1.2.7 - rasm);
- **Close Path** (yopish) ochiq konturni yopadi;



1.2.7 – rasm. **Open Path** komandasi orqali bajarish.

Reverse Path – (Yo'nalishni o'zgartirish) kontur yo'nalishini qarama-qarshisiga o'zgartirish. Bu buyuruqning bajarilishining natijasi: agarda chiziq oxirida strelka yoki boshqa tugallangan elementlar bulsa, ular joylarda o'zgaradi.




1.2.8-rasm. **Reverse Path** komandasi orqali bajarish.

Pathfinder(konturga ishlov berish) palitrasi tarkibiy obyektlarni tuzishga imkon beradi. Bir nechta shakllarni birlashtirib yoki bir biridan ayirib yangi formani shakllashtirish mumkin. **Pathfinder** palitrasi quyidagi obyektlarni qayta o'zgartirish mumkin: chizilgan obyektlar; matnli freymmlar; qiya qilingan matn.


Pathfinder palitrasi ishlash rejimi:

- **Add** (Qo'shish) Obyektlar massivi umumiy konturiga qarab, yangi shakl yasaydi (1.2.9-rasm).




1.2.9-rasm **Add** komandasi

- **Subtract** (Yuqoridagi obyektни pastdagisidan chiqarish) eng pastdagi obyektдан yuqorida turganlarini chiqarish (1.2.10-rasm).




1.2.10-rasm **Subtract** komandasi

- **Intersect** (kesishuv) obyektlar kesishgan joydan tashqari boshqa barcha obyektlarni o'chiradi (1.2.11-rasm).



1.2.11-rasm **Intersect** komandasi

- **Exlude Overlap** (kesishgan nuqtani chiqarish) 2ta obyekt kesishgan barcha nuqtada ta'sir qiladi.




1.2.12-rasm. **Exclude Overlap** komandasi

- **Minus Back** (pastdagi obyektни yuqoridagisidan chiqarish) Barcha pastda joylashgan obyektlarni yuqorisidagidan chiqaradi. (2.13-rasm)

Uchta kesishgan nuqta chizing. Barcha buyruqlar bajarilishini klaviatura yordamida

<Ctrl> +<Z>larni yozib boshlang'ich shaklga qayting.

Pathfinder palitrasi yordamida qo'shimcha "**Convert Shape**" (shakllarni qayta shakllantirish) seksiyasi ham mavjud.




1.2.13-rasm. **Minus Back** komandasi

Uni shartli ravishda 3ga ajratish mumkin:

- Burchaklarga ishlov berish
- Shakllarni qayta shakllashtirish
- Nuqtalarni qayta shakllantirish.


Birinchisi shakllarning burchaklariga nestandart forma berish imkoniyatini beradi: odatiy doira shakliga keltirish emas, balki kesmalar va o'yiqlar ham kiradi (1.2.14-rasm)



1.2.14-rasm. Burchaklarni shakllantirish

Ikkinchisi istalgan formani istalganiga almashtiradi. Ya'ni ellipsni uchburchak, erkin shaklni turtburchakka aylantiradi va ho kazo.

Uchinchisi konturdagi nuqtalarni o'zgartiradi: masalan, o'tkir burchakni doiraga o'zgartiradi yoki aksincha. (1.2.15-rasm)



1.2.15-rasm. Nuqtalarni o'zgartirish.

Shu o'rinda aytish kerakki, **Pathfinder** palitrasi guruhlashtirilgan obyektlar bilan ishlamaydi, ya'ni **Object>Group** menyusi yordamida bir butunga aylantirilgan obyektlar. Bu **Pathfinder** palitrasida ishlash uchun avval obyektlarni guruhlardan chiqarish kerak: **Object>Ungroup**. Ayniqsa bu konturga aylantirilgan matnga tegishli. Matnni qatorlardan konturga aylantirganda, o'zaro guruhlashtirilgan bloklar vujudga keladi. Bu palitrani ishlatishdan oldin guruhlardan chiqarish kerakligini sababi. [7]


Obyektlarning atributlari:

Har bir InDesign obyektida 2 ta majburiy atribut mavjud: **Stroke** (tashqi chegara "obvodka") va **Fill**(zalivka) .


Stroke (Obvodka) – obyektning tashqi chegarasi, zalivka esa uning "tana"sini to'ldirish. Bu atributlarsiz obyektlar bo'lmaydi: hattoki ular "bo'sh" bo'lsa ham. (1.2.16-rasm)

Zalivkaning ranglari va obvodkasi asboblar panelining *rangni boshqarish blokida* ko'rsatiladi. Oldinda turgan atribut aktiv deyiladi, shunga nisbatan barcha rang va boshqa narsalarni o'zgartirib bo'ladi.

Sukutlikda (<D> tugmachasi orqali o'rnatiladi) obyektning Obvodkasi qora, zalivkasi esa "Bo'sh" (mavjud emas) (1.2.17-rasm)




1.2.16-rasm. Obyektni tashaqi chegarasi va uni ranglash



1.2.17-rasm. Rangni boshqaruv bloku va standart parametrlar Obyektni tashaqi chegarasi va uni ranglash

Atributning rangini o'zgartirish uchun, kerakli piktogrammani (obvodka yoki zalivka) bosib va rang tanlang (masalan, **Swatches**(namunalar) palitrasidan). Atributni ikki marta bossangiz, ranglarni saralash oynasi paydo bo'ladi.

Alohida o'rinda matn freymlari turadi (matnning joylashgan hududi). Bir tarafdin freym ichida joylashgan matn alohida zalivka va obvodkaga ega bo'ladi. Boshqa tarafdin, ichida matn joylashgan freym ham o'z zalivkasi va obvodkasiga ega bo'ladi. Shuning uchun ish jarayonida freym obvodkasidan zalivkasiga o'tish mumkin, freym ichida joylashgan matnning obvodkasidan ham zalivkasiga o'tish mumkin. Buning uchun piktogramma ostida tugmachalar mavjud bo'lib, ular **Fill** va **Stroke**dir. Kvadrat shaklidagi tugmachani bosib freym atributlarini ko'rasiz, T harfiga o'xshagan tugmachani bosib, siz matnning atributlari bilan ishlaysiz (1.2.18-rasm).




1.2.18-rasm. Freym va uning ichidagi matnga o`tish

Obvodkani sozlash uchun maxsus **Stroke** palitrasi mavjud. Bu yerda uning qalinligini va rangini, chiziqli turini, nuqtali chiziqli, burchaklarni yasash usulini va oxirgi elementlarini sozlash mumkin.

1. Istalgan geometrik shaklni chizing. Sukutlikda atributlarni belqilang ('bo'sh' zalivka hamda 1pt qalinlikdagi qora obvodka)
2. **Pathfinder** palitrasining **Open Path** buyrug'i yordamida yopiq konturni ochiq konturga aylantiring.
3. Obvodka parametrlarni turli xil qilib sinab ko'ring.
4. Kontur uchlarining elementlarni belgilang (masalan, aylana **Start** nuqtasida va strelka **End** nuqtasida).
5. **Pathfinder** palitrasining **Reverse Path** buyrug'i orqali konturning boshlang'ich va so'nggi nuqtalar joylarini o'zgartiring va natijaga baho bering.

Stroke menyusidan **Stroke Style** buyrug'i orqali, xohishga ko'ra shaxsiy obvodka stilini yaratish mumkin. Ochilgan oynada **New** tugmasini bosing (1.2.19-rasm).




1.2.19-rasm. Obvodka stilini yaratish

Yangi oynada siz punktir obvodkani - nuqtalardan hamda parallel chiqlardan tashkil topgan obvodkani ikir-chikirigacha sozlashingiz mumkin,

Zalivkaning tuzilishi ancha oddiy: u bir hil randa yoki gradientli bo'ladi.

Obyektning atributlariga boshqaruv panelidan ham kirs bo'ladi. Bu istalgan vaqtda har bir atribut bilan, ularning qaysi biri aktivligidan qat'iy nazar, alohida ishlash imkonini beradi (1.2.20-rasm).



1.2.20-rasm. Boshqaruv paneli orqali atributlar bilan ishlash

Obyektlarni guruhlashtirish.

Odatda bir necha obyektarning ish jarayonida bir butundek bo'lishi talab etiladi. Masalan, bir necha obyektlar illyustratsiyani hosil qiladi, va ularning o'zaro joylashuvi o'zgarmas bo'lishi talab qilinadi. Bu holatda, birlashtirilishi kerak bo'lgan barcha obyektlarni belgilab olish kerak, va menudan **Object > Group** buyrug'ini tanlash kerak yoki <Ctrl>+<G> tugmachalarini bosish kerak. Shu paytdan boshlab, guruhlardan ob'ektalardan birini tanlashda umumiy konteyner ko'rsatiladi, qaysisida guruhning barcha ob'ektlari joylashgan bo'ladi. Guruhni bekor qilish uchun, bosh menuyning teskari buyrug'i xizmat qiladi **Ob'ekt > Ungroup** (Ob'ekt > guruhdan chiqarish) - <Ctrl>+ < Shift> + < G>.

Ob'ektlarni joylashish tartibi

InDesign ish maydonida ob'ektlar ularni yasash vaqti tartibida "to'plam" bo'lib joylashgan. Ilgari yaratilgan ob'ektlar to'plamning pastki qismida, oxirgilari esa yuqorida joylashgan. Tartibni o'zgartirish uchun ob'ektni tanlang va **Ob'ekt > Arrange** (Ob'ekt > Tartib) menyu buyrug'ini qo'llang yoki sichqonchanning o'ng tugmasini bosing va ob'ektni kontekst menyusida **Arrange** (Tartib) buyrug'ini tanlang. To'plamda ob'ektlarning joylashishiga qarab sizga quyidagisi taklif qilinishi mumkin:

- **Bring to Front** (Oldinga ko'chirish): saytda harakatlanish, qidiruv – <Ctrl>+<Shift>+<]>;
- **Bring Forward** (Bir qadamga oldinga ko'chirish) – <Ctrl>+<]>;
- **Send Backward** (1qadam orqaga o'tkazish)- <Ctrl>+<[>;
- **Send to Back** (orqaga yuborish)- <Ctrl>+<Shift>+<[>

Agar bir nechta obyektlar bir-birini to'sib qo'ysa, sizga esa ulardan ostidagisi kerak bo'lsa, bunda <Ctrl>ni bosib turib, obyektlarning to'plamiga bosing. Asta-sekin harakatlanib, o'zingizga kerakli obyektни tanlab olishingiz mumkin. Agar siz shu paytda boshqa obyektlarni ham tanlamoqchi bo'lsangiz, <Shift>ni ham bosib turing.

1. 4 ta bir-birini to'sib turgan obyektlarni chizng.
2. Atributlarni boshqarish bloki yordamida, ularni har xil rangga bo'yang.
3. To'plamda qayta joylashtirish buyruqlari yordamida ob'ektlarning o'rnatish tartibini o'zgartiring.
4. Bu to'plamni <Alt> tugmachasini bosib turib ko'chirish bilan nusxalab oling.
5. Tugmachalar orqali buyruqlarni bajarib, to'plamning tartibini o'zgartiring.

Ob'ektlarni tekislash va taqsimlash.

InDesignda obyektlarni moslashtirish uchun alohida palitra mavjud. **Align** (Moslashtirish)- <Shift>+<F7>. Ushbu palitrada 3 ta ish rejimi mavjud: ob'ektlarni moslashtirish, ob'ektlarni taqsimlash va ob'ektlar o'rtasidagi oraliqni taqsimlash (2.28-rasm).




1.2.21-rasm. Align palitrasi

Palitradan foydalanish uchun, qaysi ob'ekt bilan ishlamoqchi bo'lsangiz ushani tanlab olishingiz (eng kamida 2 ta yoki ba'zi paytda – 3 ta obyektlar) kerak bo'ladi. Moslashtirish (**Align Objects**) qanday bo'lishini piktogrammalar yordamida bilib olishingiz mumkin, ya'ni obyektning qaysi chekkasi bir chiziqda joylashganini. Obyektlarning taqsimlanishi (**Distribute Objects**) obyekt chekkalarining bir chiziqda joylashinuvi orqali emas, balki bir xil oraliq masofa orqali bajariladi. Bu holatda bir obyekt chekkasidan boshqa bir obyektning chekkasigacha bo'lgan masofa boshqariladi. Va nihoyat, intervallarni taqsimlanilishida (**Distribute Spacing**) obyektlar orasidagi intervallar tenglashtiriladi.

Odatda moslashtirilish va taqsimlash belgilangan obyektlarning massivlari chegarasida bo'ladi, va barcha ichki masofalar umumiy band bo'lgan maydonga qarab tanlanadi.

Taqsimlash buyrig'i uchun **Use Spacing** (Masofani belgilash) bayroqchasini yoqish mumkin, va bunda obyektlar orasi belgilangandek masofada taqsimlanadi.

1. Bir nechta geometrik shakl yasang va ajratib oling (4-5).
2. Moslashtirish usullari ro'yxatida **Align to Selection** (Ajratish bo'yicha moslashtirish) turganiga e'tibor qarating.
3. **Use Spacing** bayroqchasini masofalarni taqsimlash uchun yoqing.
4. **Use Spacing** maydonida obyektlarning joylashish oraliq masofasini ko'rsating.
5. Intervallar masofasi uchun javob beradigan piktogrammalardan birining ustiga bosing (1.2.22-rasm).



1.2.22-rasm. **Distribute Spacing** buyrug'i amallanilishining natijasi.

Qatlamlar bilan ishlash.

InDesign programmasida qatlamlar bu – materialni maketda tashkillashtirish vositasi. U obyektни tez topish, tanlash va ishlov berish, mavzuviy bog'liq elementlarni bir joyga jamlash, ularni ko'rsatish yoki yashirish, bloklash yoki kerakli blokdan chiqarish vazifalarini bajara oladi. Qatlamlarni xuddi shaffof ustma-ust turgan varaqdek tasavvur qilish mumkin (1.2.23-rasm). Istalgan ob'ekt yaratilgan paytida aktiv bo'lgan qatlamda joylashadi. Turli qatlamlarda joylashgan obyektlar bir-birini qisman yopib qo'yishi mumkin. Zarurat tug'ilganda, obyektlarni bir qatlamdan ikkinchi qatlamga o'tkazish mumkin.




1.2.23-rasm. Hujjatning qatlamli tizim sxemasi.

Sukutlikda InDesign'dagi har bir yangi hujjat o'zida birta qatlamni saqlaydi. Qatlamning standart nomi – Layer1, Layer2 va boshq. Ishni qulay bajarilishi uchun, qatlamlarni qayta nomlagani ma'qul. Masalan, "Dizayn", "Laklash", "Narxlar" va boshq.

Qatlamlarni boshqarish **Layers** (Qatlamlar) palitrasi orqali bo'ladi.

(1.2.24-rasm)



1.2.24-rasm. Layers palitrasi

Layers (Qatlamlar) palitrasi – **Window>Layers** (Oyna> Qatlamlar) hujjatning qatlamlar ro'yhatini ko'rsatadi va qatlamlarni yaratish, qayta joylashtirish va yo'qotish, ularni ko'rsatish, bosmadan chiqarish imkonini beradi. CS5 versiyasida ushbu palitra *Adobe Illustrator*ning xuddi shunday palitrasiga yaqin bo'lib, obyektning barcha qatlamlarining nomlarini ko'rsatadi, har bir obyektning tasvirlarini sozlash – ajratish, bloklash yoki blokdan chiqarish imkonini beradi. Ro'yhatni ochish uchun qatlam nomidan chap tomonda joylashgan qora uchburchakni bosish kerak.


Qatlamning ko'rinishi “ko'z” piktogrammasi orqali yoqiladi, qaysisi qatlam nomining chetida joylashgan bo'ladi. <Alt> tugmachasini bosganda faqat tanlangan qatlam ko'rinadi boshqalari ko'rinmaydi.

Har bir qatlamda o'ziga hos rangli podsvetkasi mavjud bo'lib, ob'ektni tanlaganda, obyektning u yoki bu qatlamga tegishliligini belgilaydi.

Kerakli qatlamni to'g'ridan-to'g'ri maketda ajratish qiyin bo'lsa, bunda **Layers** palitrasi orqali obyektни ajratish mumkin, buni bajarishga obyekt nomidan o'ng tomonda joylashgan qora kvadrat yordam beradi. Endi obyektни butunlay boshqa qatlam to'sib tursa ham uni ajratib olish mumkin.

Qatlam satrida “Ko'z” oldida joylashgan maydon, bloklash belgisi uchun mo'ljallangan (“qulf”). Butun bir qatlamni yoki alohida ob'ektni ham bloklash mumkin.

Qatlamning barcha sozlamalari(nom, ko'rinish, bloklash, podsvetka va ho kazo) bir vaqtning o'zida qatlamning opsiyalar oynasida bajarish mumkin, qaysisi ikkitalik bosish bilan chaqiriladi (1.2.25-rasm).




1.2.25-rasm. Qatmla oynasining barcha konfiguratsiyasi.

Qatlamlardan foydalanish maketning ko'rinishi va nashr etishini boshqarish imkonini beradi. Masalan, bir hujjatning o'zida turli manzillar uchun matnning bir necha turi bo'lishi mumkin, yoki rang tomonidan bir nechta variantlari bo'lishi mumkin, yoki bosib chiqarish uchun bir nechta variantlar bo'lishi mumkin – “Yengil” (asosiy bezash elementlari bilan tahrirlash va tekshirish uchun) va “Og'ir”(barcha import qilingan rasmlar va effektlar bilan so'nggi tasdiqlash uchun). [6]

1.3. Matnlar bilan ishlash

Matn freymi nima va u nima uchun kerak?


InDesign freym – bu hujjatdagi har qanday (matn va import qilingan grafikalar) ma'lumotni saqlaydigan konteyner. Ushbu turdagi materiallar hujjatda freymsiz mavjud bo'lmaydi. Oddiy freym – bu shunchaki katta o'lcham markerlari va burchak yaxlitlash belgilariga ega bo'lgan ramka, qaysisi obyektни kerakli joyga ko'chirish va o'zgartirishga imkon beradi (1.3.1-rasm).



1.3.1-rasm. Oddiy freym.

Matn freymi gabaritli konteynerda o'z xususiyatlariga va qo'shimcha belgilarga ega – kirish (chap tomondagi yuqori burchakda) va chiqish belgisi

(o'ng tomondagi pastki qismda). Bu belgilar juda muhim rol o'ynaydi va biz buni keyinroq ko'rib chiqamiz (1.3.2-rasm).



1.3.2-rasm. Matnli freym.

Matn freymini yaratish uchun:

1. Asboblardagi **Type Tool** (Matn) tanlang.
2. Kursorni sahifaga joylashtiring. Kursor **Type** vositasi shaklini oladi.
3. Sichqoncha ugmasini bosib turib, diagonal sifatida cho'zing va to'rtburchak chizing.
4. Sichqoncha tugmasini qoyib yuboring. Ekranda freym paydo bo'ladi, ichida matn kiritishingiz mumkinligini ko'rsatuvchi matn kursori ko'rsatiladi.[5]

Izoh: Type vositasi har doim to'rtburchakli freymnlarni hosil qiladi. Boshqa shaklli freym yaratmoqch bo'lsangiz, boshqa geometrik shakl vositalaridan foydalaning.

Matni kiritish. Matnni import qilish.

Matn matnli rejimda bo'lgani kabi, klaviaturadan kiritiladi. Qator uzunligi freym ramkasi bilan cheklangan, shuning uchun qatordan qatorga o'tish avtomatik ravishda amalga oshiriladi.

Faylda tashqi manbadan matnni joylashtirish uchun;

1. **File > Place** (Fayl > Joylashtirish) - (<Ctrl>+<D>) buyrug'ini chaqirishingiz kerak.
2. Import qilinadigan faylni toping.
3. Tanlangan format uchun maxsus import sozlamalarini ko'rish uchun **Show Import Options** (Import sozlamalarini ko'rsatish) maydonida bayroqchani qo'ying.

Tanlangan matn freymning mazmunini yangi matn bilan almashtirish uchun, **Replace Selected Item** (Tanlangan matn o'rniga) maydonida bayroqcha qo'iladi.

Ochish tugmachasini bosgandan so'ng, **Import Options** (Import sozlamari) oynasi ochiladi.

InDesign dasturi turli matn muharrirlarida yaratilgan fayllarni import qilish imkonini beradi. Odatda bular Microsoft Word yoki past darajadagi muharrirlar – WordPad yoki Notepad. Import qilingan fayl formati matn muharririga bog'liq.

Keyinchalik InDesignga fayllarni import qilish uchun, matnli hujjatni RTF (Rich Text Format- kattalashtirilgan matnli format) formatida saqlashingiz kerak. Asl formatlashni saqlab qo'yishga imkon beradi va InDesignga o'zgarishsiz import qilinadi. XLS/XLSC (Microsoft Excel) va DOC/DOCX (Microsoft Word) formatlari ham amal qiladi, ammo "yozuvlar" bilan va biriktirilgan illyustratsiyalar bilan murakkab formatlash yo'qoladi.


Matnni TXT formatida (eng oddiy) elektron matn formatida ham import qilishingiz mumkin. Formatlashsiz matnni saqlash uchun juda yaxshi bo'ladi, keyin barcha sozlamalarni to'g'ridan to'g'ri InDesignda amalga oshirilishi va Internetdan materiallarni saqlab qolishi mumkin, ammo import paytida kodlash bilan bog'liq qiyinchiliklar bo'lishi mumkin.

Har bir fayl turi o'z opsiyalari to'plamiga ega:

Microsoft Word fayllari uchun opsiyalar (1.3.3-rasm):

- **Include** (Yoqish) - hujjatga kiritilishi uchun lozim bo'lgan hujjat qismini tanlash.
- **Table of Contents** (Mundarija);
- **Index** (**Voqea (Mavzu)** ko'rsatgichi);
- **Footnotes va Endnotes** (Havola va izohlar)
- **Use Typographer's quotes** (Chop etishda qo'shtirniqlaridan foydalanish) - oddiy matn muharrirlarining qo'shtirnoqlarini bosmaxona ko'rinishidagi qo'shtirnoqlariga almashtirish;
- **Formatting** - asl hujjatda matn formatlashiga munosabatni ifodalaydi;
- **Remove Styles and Formatting from Texts and Tables** (Jadval va matn formatlashini va stilini yo'qotish.)

- **Preserve Styles and Formatting from Texts and Tables** (Jadval va matn formatlashini va stilini saqlab qolish).




1.3.3-rasm. Microsoft Word formatidagi import opsiylari oynasi.

Qolgan sozlamalar sahifalarni ko'rsatilishi, stillar to'qnashuvlarning yechilishi va ichki matnli grafikalar bilan ishlashi bilan bog'liq. Yuqorida yozilganlardan ko'ra bular kamdan-kam kerak bo'ladi.

RTF fayllari uchun **Import Options** (Import parametrlari) muloqot oynasi o'xshash import parametrlarini o'z ichiga oladi.


Microsoft Exel fayllari uchun opsiyalar (1.3.4-rasm).

- *Import uchun kerak bo'lgan jadvalning kataklari va sahifalarini tanlash;*
Tabulyatsiya chizig'i ikki asosiy vazifani hal qilish uchun mo'ljallangan: jadvallarni yaratmasdan (masalan, ro'yxatlarda) matnlar ustunlarini tekislash va ko'p nuqtalarni yaratish (bir nechta nuqta bilan satr elementlari orasidagi bo'shliqni

to'ldirish) uchun. Ko'p nuqtalar ko'pincha mundarijani yaratish uchun ishlatiladi, shuning uchun stillar yaratilganda, qaysisi mundarijaning ko'rinishini shakllantiradi, **Tabs** ilovasi albatta ishlatiladi.


Hujjatda matnning moslashtirish nuqtasini boshqarish uchun, tabulyatsiya chizig'idan foydalanishingiz mumkin. Bu ro'yxat yoki jadvallar bilan ishlash uchun maxsus stil bo'ladi.

Yangi moslashtirish nuqtasini o'rnatish uchun, markerni (o'lchagich ustidagi kichik qora strelkani) tanlang, u bilan o'lchagichning yuqori qismida bo'sing (o'lchagich qismlari ustidagi bo'sh oq maydon). Ko'rsatgichning egilish yo'nalishiga qarab, u chap, o'ng va markaz tomondagi pozitsiyasiga qarab matnni moslashtiradi. Ko'rsatgichni o'rnatib, <Tab> tugmachasini bosgandan keyin kursorning pozitsiyasini aniqlaysiz.

Ko'p nuqtalarni yaratish uchun, o'lchatgichda matnni moslashtiradigan o'rnatilgan ko'rsatgichni ajratish kerak va faol ajratishda **Leader** maydoniga nuqta qo'ying. Tanlangan nishondan oldingi bo'sh joy **Leader** maydoniga kiritilgan belgilar bilan to'ldiriladi.

– **Paragraph Rules** (Xatboshi chiziqlari).


Ushbu ilova (2.2.7-rasm) abzatsni chiziqlar bilan ajratish imkonini beradi: biri yuqoridan, ikkinchisi ostidan. Bu doimo bajarilmasligi kerak. Bunday usul, misol uchun, gazeta qo'shimchasiga juda mos bo'lishi mumkin, qaysisi boshqa xil matn bilan teriladi yoki boshqa nashriyot usuli bilan ajratiladi (6.7-rasm).



2.2.7-rasm. Paragraph Style Options palitrasi. Paragraph Rules ilovasi.

Chiziq ko'rsatuvi (**Rule On**) ni belgilash orqali ruxsat etiladi.


Chiziqlarni ko'rsatishga ruxsat berib, ularning sozlamalaridan foydalana olasiz (barcha o'rnatish maydonchalari faol bo'ladi). Odatda, bu erda **Stroke** (Chiziq) palitrasi nazorat qiladi, hamda o'rnatilgan **Swatches** (Namunalar) ichki palitrasida rangni tanlash mumkin. Abzatts satrining muhim sozlamasi **Offset** - matndan chiziqqacha masofasidir (2.2.8-rasm).




2.2.8-rasm. Abzatts chiziqlarini ishlatish namunasi.

Izoh: Shriftni konturga o'tkazganda, qaysisi stillarida abzatts chiziqlarini o'z ichiga olgan, uni ajratilishi matn **Selection** (Qora strelka) vositasi bilan emas, balki **Type** (Matn) vositasi bilan bo'lishi kerak. Bunday holda, chiziqlar matn bilan birga o'zgaradi. **Selection** asbobini tanlaganingizda, chiziqlar yoqoladi.

- **Keep Options.** Ushbu ilova (2.2.9-rasm) matndagi abzattsning noto'g'ri ko'rinishini avtomatik ravishda oldini olish imkonini beradi. Misol uchun, sarlavha atagan matndan uzulib tursa, bunday ko'rinish juda g'alati. Osilib turgan satrlar – bu maxsus muammo, abzattsning oxirgi satrlari keying betning boshida joylashishi yoki aksi – keyingi abzattsning birinchi satri betning oxirida (2.2.10-rasm).



2.2.9-rasm. Paragraph Style Options palitrasi. Keep Options ilovasi.



2.2.10-rasm. Nashr xatolari: sarlavhaning uzilishi, osilgan satrlar.

Matnning muayyan qismiga ta'sir ko'rsatadigan sozlamalar (sarlavha, izoh, tananing matnlari va boshqalar) ushbu qism uchun stilda (sarlavha stili, izoh stili, asosiy matn stili) belgilanadi.

Keep with Next maydoni sarlavhalarni asosiy matndan uzulishini oldini oladi.

An'anaga ko'ra, sarlavhadan keyingi bo'shliqda keying abzatsning kamida uchta satri joylashishi mumkin, aks holda o'qiyotgan paytda matn osilgan satrlarga o'xshaydi. Ko'pincha, maydonga 3 qiymati kiritiladi, ba'zan (masalan, p'esani nashr etganda) u kamroq bo'lishi mumkin (ya'ni, bu qiymat 2ga teng; 1 qiymati ushbu maydonda qo'llanilmaydi). Shu bilan birga, sarlavha va matnni uzulish imkoniyati yo'qoladi. Ushbu parametr sarlavhani formatlash stilining bir qismi bo'lishi kerak.


Keep with Next Together maydoni sarlavhaning asosiy matndan uzulishini nazorat qilish uchun ishlatiladi. U ishning ikkita rejimiga ega: **All Lines in Paragraph** (Abzatsni uzmaslik) va **At Start/End of Paragraph** (Osilgan satrlarning oldinini olish). Birinchi rejim (**All Lines in Paragraph**) bir abzatsning qismlarini turli betlarda joylashtirishini man etadi. Ushbu rejim rasmlarning nomini, ko'p satrli sarlavhalarni yoki izohlarni yozishda ishlatiladi. Amalda bu degani: agar abzats to'liq betga sig'masa, bunda u to'liq keyingi betga ko'chiriladi. Ikkinchi rejim (**At Start/End of Paragraph**) osilgan satrlarni avtomatik tarzda yoqotadi. Biz faqat muvofiq maydonda abzatsning satrlar sonini ko'rsatishimiz

kerak xolos. Satrlar soni albatta betning oxirida qolishi yoki keying betga o'tishi kerak.

Masalan, **Start** va **End** maydonlarining qiymatini 2-ga tenglashtirib, biz shu bilan o'shani belgilaymizki, kamida ikkita qator ko'chiriladi / saqlanadi.

Ushbu usul orqali osilgan satrlarni oldini olish assimetrik ichki betlarning paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin: chap va o'ngdagi satrlar soni turli bo'lishi mumkin. Jurnallar va ba'zi bir kitblar (masalan, ma'lumotnomalar) nashrlarida bunday ko'rinish bo'lishi mumkin, ammo gazetalarda va klassik kitob nashrlarida buni mutlaqo bo'lishi mumkin emas. Bunday holda, osilgan satrlardan xalos bo'lish kerak (masalan, har bir satrda belgilar sonini va so'zlarni ko'chirilishini qo'yib chiqqan holda).

Start Paragraph (Abzats boshi) - bu abzatsni oldingiga ko'ra, qayerda boshlashni belgilovchi juda muhim parametr (2.2.11-rasm). Masalan, ro'yxatdagi **On Next Page** ni tanlab, abzats yangi sahifada boshlanishini, **In Next Column** ni – keyingi kolonkada va hokazolarni belgilab qo'yasiz. Kitoblar bilan ishlashda bu parametrni ishlatish ayniqsa foydalidir, chunki odatda kitoblarning har bir bobi yangi sahifadan boshlanadi.



2.2.11-rasm. Abzatsning boshlanish joylari ro'yhati.


– **Hyphenation** (So'z ko'chirishlarni qo'yish) (2.2.12-rasm).

Lug'atni to'g'ri tanlash bilan ham, so'z ko'chirishlarni qo'yish oson emas va uni avtomatlashtirish qiyin. Kerakli moslashuvchanlikni ta'minlash va shu bilan birga maket ko'rinishini ko'p sonli ko'chirishlar ketma-ketligi bilan buzmaslik

kerak (so'z ko'chirish belgisi bilan yakunlangan satr kalta ko'rinadi va shu kabi satrlar ko'p bo'lsa, hujjatning shu qismi o'ng tomondan surilganday ko'rinadi).

Hyphenation ilovasi so'z ko'chirish barcha sozlamalarini boshqarish imkonini beradi. Bu erda tanlangan tilda ko'chirish qoidalarini belgilashingiz mumkin: ruxsat berilgan so'z ko'chrilishi ketma-ket kelish soni, ko'chirish maydoni – satr qismining uzunligi, qaysisi ko'chrish variantini tanlashda ko'rilib chiqiladi va boshqalar.


Avtomatik tarzda ko'chirishni qo'yib chiqish juda murakkab va ushbu ilovaning ehtiyotlik bilan qoyilgan barcha sozlamalari ham, barcha ko'chirishlarni til jihatidan to'g'ri tarzda amalga oshirilish va hujjatning chiroyli ko'rinish kafolatini bermaydi. Tilda qabul qilingan til qoidalarini buzilishi va satr ko'rinishi yomonlashishi (harflar yoki so'zlarning haddan tashqari zich joylashishi yoki aksincha, juda katta bo'shliqlar tufayli kamchiliklar bo'lishi mumkin) paydo bo'lishi mumkin. Xatolar qo'lda tuzatilishi mumkin. Ko'chrishni qo'lda o'rnatish uchun *ihyoriy ko'chirish* amallanadi, bunisi <Shift> + <-> tugmachalarini bosib amalga oshiriladi. Bu ko'chrishning maxsus belgisidir va so'zni ko'chirish kerak bo'lmagunicha ko'rinmasdir. Agar siz so'zning istalgan nuqtasida ixtiyoriy ko'chirish belgisini qo'ysangiz, dastur mumkin bo'lsa ko'chirishni bajaradi (agar ko'chirishlar soni ruxsat berilganidan oshmasa, keyingi qatorlarni juda zichlamasa va hokazo).



2.2.12-rasm. Paragraph Style Options palitrasi. Hyphenation ilovasi.


– **Justification** (O'chirish sozlamalari).

O'chirish (Moslashtirish) – satrda so'zlarni va belgilarni taqsimlash, matn bloklning bir yoki ikkala chetini bir vaqtning o'zida tekislash, yoki matn satrlarini vertical o'qi bo'yicha simmetrik tarzda joylashtirishga imkon beradi. Moslashtirish umumiy sozlama parametrlari stilning ustida ishlash dastlabki qismida, **Indents and Spacing** ilovasida o'rnatilgan edi va bu yerda satr ichidagi matnning xatti-harakatlarini tartibga soluvchi juda nozik sozlamalar bajariladi (2.2.13-rasm).



2.2.13-rasm. Paragraph Style Options palitrasi. Justification ilovasi.

Ushbu sozlamalarning to'g'ri tanlovi, satrda so'zlarni va belgilarni juda zich va juda siyrak joylashuvini oldini olish imkonini beradi (6.14-rasm).



2.2.14-rasm. Sifatli sozlama bo'lganda muammolar hosl bo'ladi

Bu erda har bir parametr uchun uchta asosiy variant mavjud:

- minimal qiymat (**Minimum**);
- istalgan qiymat (**Desired**);
- mumkin bo'lgan maksimal qiymat (**Maximum**).

Bundan tashqari, uchta asosiy parametr mavjud:


- bo'shliqning kengligi (**Word Spacing**) (prbelni bosish bilan olingan bo'shliq);

- belgilarning orasidagi masofani o'zgartirish (**Letter Spacing**) (kerning va trekking qo'shilgan);
- matnli belgilar nisbatlarini o'zgartirish (**Glyph Scaling**).

Ushbu parametrlar ruxsat etilgan ko'chirish qiymatlari bilan birgalikda, matnni optik jihatdan moslashtirilgan va o'qishda qulaylik imkonini beradi.

- **Bullets and Numbering** (Raqamli va belgili (markerli) ro'yxatlar).

Matnning bir qismini ro'xat qilib chiqarish – turli matnli maketlar bilan ishlashda juda mashhur ish. Har bir ro'yxatni alohida vaqtni sarflab bezamaslik uchun, ro'yxat parametrlarini to'g'ridan-to'g'ri abzats stilida sozlash juda qulay (6.15-rasm). Agar abzats stiliga bog'lanmagan ro'yxat tuzishni istasangiz (masalan, butun nashrda faqat bitta ro'yxat mavjud), bunda Boshqarish panelida **Bullets & Numbering** buyrug'idan foydalanishingiz mumkin.



2.2.15-rasm. Paragraph Style Options palitrasi. Bullets & Numbering ilovasi.


List Type bosqichida ro'yxat turi tanlanadi: *belgili* yoki *raqamlangan*. Bunga qarab, oynada raqamlarning tashqi ko'rinishini sozlash yoki ro'yxat belgilarining sozlamalari ko'rsatiladi.

Ro'yxat belgisi har qanday mavjud shriftning har qanday belgisi bo'lishi mumkin.

Yangi markerlarni qo'shish uchun marker jadvalining yonidagi **Add** (Qo'shish) tugmasini bosing, shrift va belgini tanlang, **Add** ni bosing.

Character After (markerdan keyin belgi) maydoni markerning asosiy matndan qanday ajratilishini aniqlaydi. Odatda bu tabulyatsiya belgisi.

Markerning nisbiy va asosiy matn joylashuvi. Bu erda **Left Indent** (Chapdan bo'shlik) — asosiy matngacha bo'lgan masofa, **First Line Indent** (Abzat uchun bo'shlik) — matnning chetidan markerni chapga chiqish qiymati. Oxirgi maydondagi qiymat manfiy bo'lishi mumkin, ammo (modulga ko'ra) chap bo'shlikdan katta emas. Ushbu bo'shliklarning modullari teng bo'lsa, bunda **Tab Position** (Tabulyatsiya qiymati) maydoni faol bo'lmaydi. Aks holda, tabulyatsiya qiymati quyidagi diapazonda ko'rsatilishi mumkin: markernig chap tomondagi va asosiy matnning chap tomonidagi orasidagi qiymatidan markerning kenglik qiymati ajratiladi (2.2.16-rasm).




2.2.16-rasm. Markerli ro'yxatda otstuplar

Raqamli ro'yxat uchun, huddi belgili ro'yhat uchun, raqamlash turi (Arab, Rim, harfli va boshqalar) va raqam va matnning o'zaro aniqlanadi.

– **Character Color** (Matn rangi).

Ushbu ilovada tanlangan uslub bilan bezatilgan abzatslar uchun matn rangi belgilanadi. Uning sozlamalari sizga tanish bo'lgan **Swatches** palitrasiga (Namunalar) juda o'xshash. Bu erda siz nafaqat belgilarning rangini sozlashingiz, balki ularga **obvodkani** belgilashingiz va uning rangi va qalinligini belgilashingiz mumkin (2.2.17-rasm).




2.2.17-rasm. Paragraph Style Options palitrasi. Character Color vkladkasi

Biz bu erda ba'zi ilovalarni ko'rib chiqmadik — masalan, abzats ichidagi matnni ustunlarga bo'lish yoki matnning pastki chiziqlarini sozlash kabi, lekin bu sozlamalar murakkab emas va kamdan-kam hollarda qo'llaniladi, ularga murojaat qilish vaqtida siz o'zingizning harakatlaringizni tushunishingiz mumkin.

Abzats uslubini to'liq sozlab, **OK** tugmasini bosing va *belgilar stillarini* ko'rib chiqamiz.

Belgi stilini yaratish va qo'llash

Belgi stili abzats stilidan farq qiladi, chunki u butun abzatsni boshqarishni talab qilmasdan, alohida belgilarga yoki ularning ketma-ketligiga qo'llaniladi. Bunday cheklangan harakatini ta'minlash uchun u alohida **Character Styles** (Belgi stillari) palitrasida sozlanadi va saqlanadi. Huddi **Paragraph Styles** (Abzats stillari) palitrasida bo'lgani kabi, sozlamalar yangi stilni yaratish tugmasi yoki mavjud bo'lgan stilning ustiga ikki marta bosish orqali chaqiriladi. Ushbu palitrada **Paragraph Styles** (Abzats stillari) palitrasida mavjud bo'lgan sozlamalarni qisman takrorlaydi — belgilarni formatlash bilan bog'liq bo'lganlari (2.2.18-rasm).




2.2.18-rasm. Character Style Options palitra. Basic Character Formats vkladka.

Basic Character Formats (Belgilarning asosiy sozlamalari) ilovani ishlatib, **main_text** belgilar stilini yarating:

- **Font Family** = Minion Pro;
- **Font Style** = Regular;
- **Size** = 10 pt;
- **Leading** = 12 pt;
- **Kerning** = Optical;
- **Tracking** = 0.

Ichki uslublar va bosh harflar Harflar (bosh harf) – ushbu vosita orqali siz matnning boshini bezaysiz. Bu uslub avvaldan amallangan, matn o'quvchining e'tiborini qaratish uchun, ba'zan bosh harfning ichida rasm ham chizilib qo'yilgan bo'lar edi.

Adobe InDesign-da bosh harflarni yaratish va sozlash **Paragraph Styles** palitrasining **Drop Caps and Nested Styles** ilovasida (Bosh harflar va ichki stillar) bajariladi (2.2.19-rasm).



2.2.19-rasm Vkladka Drop Caps and Nested Styles palitralar Paragraph Styles.

Bosh harf bir abzatsning atributi bo'lishi ham mumkin va keyin uni Boshqarish panelida sozlash kerak bo'ladi, lekin "Bobning birinchi abzatsi" stilini yaratish va uni ushbu turdagi barcha abzatlarga qo'llash oqilona.

Biz bilganimizdek, bosh harf ikkita parametr bilan tavsiflanadi: satrdagi balandlik va harfga kiritiladigan belgilar soni. Bosh harfni belgi stili bilan bezatish mumkin (bu holda, "Bosh harf" stili birinchi navbatda **Character Styles** (Belgilar stili) palitrasida yaratilishi kerak — masalan, bosh harf uchun ba'zi bir aktsident shrift tanlash, nostandart naqshni o'rnatish va h.k.).


Bosh harfning kattaligi maydonlarida bosh harfning balandligi satrlarda va bosh harf deb hisoblangan belgilar soni belgilanadi.

Izoh: Yahshisi bosh harfning kengligi 1ga teng bo'lishi kerak, chunki bunda bosh harf bitta bo'ladi. Agar birinchi so'zni turlicha bezatish kerak bo'lsa, (**Nested Style**) ichki stili bilan foydalanish lozim.

Nested Style (ichki stil) doirasida belgi stili aniqlanadi, bu belgi stilida matnning dastlabki bir necha harflar yoki so'zlar yoziladi, xuddiki bosh harfdan qolgan matnga o'tishni nazarda tutadi. Tabiiyki, bu stilni ham **Character Styles** (Abzats stillari) palitrasida oldindan tayyorlanishi kerak.

Ichki uslubni sozlash quyidagicha:

1. Stillar ochiladigan ro'yxatidan ushbu maqsad uchun yaratilgan stil tanlanadi.
2. Stilni qo'llash usuli aniqlanadi – **Up To** (Gacha qo'llash...) yoki **Through** (Unga qo'llash...) va uni qo'llash sohasi – belgilar, so'zlar yoki to'plamning boshqa elementlari soni (6.20-rasm).




2.2.20-rasm. Ichki stilni qo'llash sohasini tanlash.

Nested Line Styles (Ichki stillar satri) maydoni bir yoki bir nechta satr uchun ichki uslubni o'rnatish imkonini beradi. Bu erda sozlamalar **Nested Style**

maydoniga o'xshaydi va faqat qo'llash sohasida farq qiladi: bu erda faqat qatorlar soni ko'rsatilishi mumkin.

Bizning ish matnimiz uchun "Birinci abzats" stilini yarataylik.

1. **Character Styles** palitrasida **main_text** stili asosida, uning ichida Minion Pro garniturasini Impact bilan almashtirib, **Initial** stilini yarating.
2. O'sha joyda, **main_text** stiliga asoslangan **First_word** stilini yarating, **Case** (Registr) maydonida **Small Caps** qiymatini bering.
3. **Paragraf Styles** (Abzats stillari) palitrasida **main** stiliga asoslangan **First_paragraph** stilini yarating.
4. **Drop Caps and Nested Styles** (Bosh harflar va ichki uslublar) ilovani oching.
5. Bosh harf parametrlarini belgilang:
 - **Lines** = 3;
 - **Characters** = 1;
 - **Character Styles** = Initial.
6. Ichki stilning parametrlarini belgilang:
 - **Character Styles** = First_word ni **Through**, 2, Words rejimida amallash.Bizning ichki stilimis abzatsning birinchi ikki so'ziga beriladi.
7. Matnimizning birinchi abzatsiga **First_paragraph** stilini qo'llang (2.2.21-rasm).



2.2.21-rasm. Bosh hafr bilan va ichki stil bilan stilni ishlatish misoli.

Stillarni tahrirlash


Stillarni tahrirlashini chaqirish uchun **Paragraph Styles** palitrasida yoki **Character Styles** palitrasida uning satriga ikki marta bosish kifoya va bizga tanish

bo'lgan stillar sozlamalari oynasi paydo bo'ladi. Stilni istalgan vaqtda o'zgartirishingiz mumkin va barcha o'zgarishlar ushbu stil bilan formatlangan barcha matn qismlariga darhol qo'llaniladi.

Boshqa hujjatdan stillarni yuklab olish

Stillar to'plamini boshqa hujjatlardan yuklab olishingiz mumkin, buning uchun **Load Character/Paragraph Styles** (Belgilar stilini yuklash / Abzats stilini yuklash) buyrug'ini bajaring. Ushbu palitralarning har ikkalasi ham kontekst menyusida barcha abzats va belgilar stillarini birgalikga o'rnatish imkonini beradigan **Load All Text Styles** (Barcha stillarni yuklab olish) buyrug'ini o'z ichiga oladi. Ushbu buyruq ayniqsa katta loyihalar bilan ishlashda juda foydalidir (bir nechta alohida hujjatlardan tashkil topgan kitoblar: bir marta stillar to'plamini yaratishga imkon beradi va keyin uni yangi hujjatlarga faqat yuklaydi xolos).

Standart boshqarish oynasida kerakli stillar bilan faylni tanlagandan so'ng, muloqot oynasi ochiladi bu erda siz ish hujjatida kerakli stillarni tanlaysiz (2.2.22-rasm).



2.2.22-rasm. Stilni yuklash muloqot oynasida stillarni tanlash.

Stillar ro'yxatida ajratilgan stil uchun oynaning pastki maydonida uning barcha sozlamalarining tavsifi paydo bo'ladi. Faqat kerakli stillarni ajratib, **OK** ni bosing. Stillar tegishli palitralarga qo'shiladi. [2]

2.3. Kitoblar va kutubxonalar

Kitob bog'langan hujjatlar tizimi sifatida

Kitob fayli – bu bir xil uslublar, namunalar, shablon-sahifalar va boshqa elementlardan iborat bo'lgan hujjatlar to'plamidir. Kitobning hujjatlarida sahifalarni raqamlash, kitobning alohida hujjatlarini chop etish yoki ularni PDF-fayllarga eksport qilish mumkin. Bitta hujjat bir nechta kitoblarga tegishli bo'lishi mumkin. Shunday qilib, siz nisbatan kichik hujjat bilan bir vaqtning o'zida ishlashingiz va uni kitobning boshqaruv vositalaridan foydalanib, loyihaning barcha boshqa qismlariga muvofiqligini nazorat qilishingiz mumkin.

Kitob fayliga qo'shilgan hujjatlardan biri stillar manbai bo'lib qoladi. Odatiy bo'lib, stillar manbai kitobdagi birinchi hujjatdir, lekin har qanday vaqtda kitobning barcha qismlarini formatlash va o'zaro bog'liklikni ta'minlaydigan yangi stillar manbasini tanlash mumkin.

Ushbu jarayonni ikki bobdan iborat kitob misolida ko'rib chiqamiz.

1. Quyidagi sozlamalar bilan hujjat yarating:

- **Print**;
- **Size** = A5;
- **Numbers of Columns** = 1;
- **Margins**:
- **Inside** = 12 mm;
- **Top** = 16 mm;
- **Outside** = 20 mm;
- **Bottom** = 24 mm.

2. Sahifa raqamlari va kolontitullar bilan oddiy shablonni yarating: "Pelam Grenville Woodhouse. Blanding Saga" va "Section" (Suzuvchi kolontitul).

3. Ikkita uslubini yarating: **Body** (Asosiy matn uchun) va **Header** (sarlavhalar uchun).

4. Birinchi sahifada **Numbering & Section Options** sozlamani qo'llang; "1-bob. Qovoq qo'riqchisi" degan joyda bo'limning markerini o'rnatish.

5. Blandings.indd nomi bilan faylni shablon sifatida saqlang (**Save As > InDesign Template**).

6. Lord_emsworth faylni.doc import qiling.

7. Matnni joylashtiring va formatlang.
8. Glava.indd deb nomlangan hujjat sifatida faylni saqlang.
9. Shablon asosida yangi hujjat yarating. Barcha master-shablonlar va uslublar avtomatik ravishda shablondan unga o'tkaziladi.
10. Bo'limning markerini "2-bob. Svi-ou-ou-hey!" deb almashtiring.
11. Pi-i-ggy.doc faylini import qiling.
12. Matnni joylashtiring va formatlang.
13. Faylni 2-bob.indd nomi bilan saqlang.
14. Endi siz kitobni yig'ishni boshlasangiz bo'ladi.
15. Menyudan **Fayl > New > Book** (Fayl > Yangi > Kitob)ni tanlang.
16. Kitobning nomini kiriting — masalan, **Blandings. Saqlash** tugmasini bosing.
17. **Book** (Kitob) palitrasi paydo bo'ladi (2.3.1-rasm). Kitob fayli indb kengaytmasi bilan saqlanadi.



2.3.1-rasm. Book palitrasi.

Kitob fayliga hujjatlarni qo'shish


Book (Kitob) palitrasi — hujjatlarni qo'shish, o'chirish yoki tartibga solish mumkin bo'lgan kitob faylining ish maydoni.

1. Palitraning pastki qismidagi " + " tugmani bosing.
2. Ikkala hujjatni (1-bob va 2-bob) tanlang va **Open** tugmasini bosing.
3. Hujjatni stillar manbai sifatida e'lon qilish uchun palitrada hujjatning nomi yonidagi katakchada bayroqchani qo'ying.

Savol tug'iladi: nima uchun hujjatni stillar manbasi deb e'lon qilamiz, agarda yangi hujjat asl hujjatning barcha sozlamalarini saqlaydigan shablon asosida yaratilsa? Yangi hujjatlarda ishlash jarayonida dastlabkisi bilan farqlar paydo bo'lishi mumkin — yangi stillar, yangi shablonlar, oldindan yaratilgan shablonlardagi o'zgarishlar va boshqalar. Kitobning barcha qismlarini bitta turga

olib kelish uchun, *moslashtirish (sinxronlash)* vazifasidan foydalaniladi. Ushbu vazifa sozlamalar to'plamiga asoslangan bo'lib, uslublar manbai deb e'lon qilingan.

Book (Kitob) palitrasidagi hujjat satrida ikki marta bosilganda, u tahrirlash uchun ochadi (2.3.2-rasm).



2.3.2-rasm. Qo'shilgan hujjtlar bilan Book palitrasi.

Kitob fayllarini boshqarish

Kitobning har bir ochilgan fayli **Book** (Kitob) palitrasi alohida ilovasida paydo bo'ladi. Agar bir vaqtning o'zida bir nechta kitob ochilgan bo'lsa, ushbu kitobga o'tish va kerakli palitraning menyusiga kirish uchun tegishli ilovani bosing.

Book (Kitob) palitrasidagi belgilar hujjatning joriy holatini ko'rsatadi: ochiq, yo'q (ko'chirilgan, qayta nomlangan yoki o'chirilgan), o'zgartirilgan (tahrirlangan yoki hujjat yopilganda sahifa yoki bo'limlarning raqamlari o'zgargan) yoki ishlatilayapti (hujjat ish jarayonida boshqa foydalanuvchi tomonidan ochilgan).

Yopiq hujjatlar yonida belgilar ko'rsatilmaydi.

Kitob faylini saqlash

Kitob fayllari hujjat fayllaridan alohida saqlanadi. Agar **Save Book** (Kitobni saqlash) buyrug'ini tanlasangiz, InDesign kitobdagi hujjatlarni emas, balki kitobdagi o'zgarishlarni saqlaydi.

Kitobni yangi nom bilan saqlash uchun **Book** (Kitob) palitrasi menyusidan **Save Book as** buyrug'i tanlanadi.

Kitobni joriy nomi bilan saqlash uchun **Book** (Kitob) palitrasi menyusida **Save Book** (Kitobni saqlash) buyrug'i yoki **Book** (Kitob) palitrasining pastki qismida **Save** tugmasi tanlanadi.

Kitobdan hujjatlarni olib tashlash

Hujjatni kitobdan olib tashlashilishi hujjatning kontekst menyusidagi **Remove Document** yoki palitraning pastki qismidagi "-" tugmasi bilan amalga oshiriladi. Hujjatni kitobdan olib tashlashi faylni diskdan olib tashlashni anglatmaydi, faqat kitob faylidan hujjatga havola o'chiriladi.


Hujjatlarni kitobda moslashtirish (sinxronlashtirish).

Kitobdagi hujjatlarni sinxronizatsiya qilish vaqtida berilgan elementlar (stillar, master-shablonlar, raqamli ro'yxatlar, namunalar va boshqalar) stillar manbasidan kitobda ko'rsatilgan hujjatlarga nusxalanadi, bunda bir xil nomli elementlar nusxalanganlar bilan almashtiradi.

Agar stillar manbasida mavjud bo'lgan elementlar sinxronlashtirilgan hujjatlarda topilmasa, ular qo'shiladi. Stillar manbasida ba'zi elementlar mavjud bo'lmasa, sinxronlangan hujjatlardagi tegishli elementlar o'zgarishsiz qoladi.

Sinxronlash uchun elementlarni tanlash

1. **Book** (Kitob) palitrasi menyusida **Synchronize Options** (Sinxronlash parametrlari) buyrug'ini tanlang (2.3.3-rasm).
2. Stillar manbasidan kitobning boshqa hujjatlariga nusxa ko'chirishingiz kerak bo'lgan elementlarni tanlang — masalan, abzats stillari va master-shablonlar.



2.3.3-rasm. Synchronize Options muloqot oynasi.

Hujjatlarni kitob fayliga sinxronlashtirish

Kitobni unga kiritilgan hujjatlarni ochmasdan sinxronlashtirishingiz mumkin. InDesign dasturi yopiq hujjatlarni ochadi, o'zgarishlarni amalga oshiradi va keyin ularni saqlaydi va yopadi. Sinxronlashtirish paytida ochilgan hujjatlar o'zgaradi, lekin saqlanmaydi.

1. **Book** (Kitob) palitrasida 1-bob hujjatining yonidagi katakchaga bayroqchani qo'ying.
2. Stillar manbasidan nusxasi ko'chirilishi kerak bo'lgan elementlar **Synchronize Options** (Sinxronlash imkoniyatlari) dialog oynasida tanlanganligiga ishonch hosil qiling.
3. Stillar manbasi bolgan hujjat bilan sinxronlash kerak bo'lgan hujjatlarni tanlang. Agar hujjatlar tanlanmagan bo'lsa, butun kitob sinxronlashtiriladi.
4. **Book** (Kitob) palitrasi menyusida **Synchronize Book** buyrug'ini tanlang yoki **Book** palitrasining pastki qismidagi **Synchronize** tugmasini bosing.

Master-shablonlarni sinxronlash


Master-shablonlar huddi boshqa elementlar kabi sinxronlashtiriladi: stillar manbaidagi bir xil nomlangan master-shablonlar (masalan, A-Master) almashtiriladi. Shablonlarni sinxronlash, bir xil bezak elementlarini ishlatadigan hujjatlar uchun qulaydir, masalan, ustunlar va kolontitullar.

Master-shablonlarni faqat bitta stillar manbasidan sinxronlashtirish to'g'ri. Turli xil stillar manbasidan sinxronlashtirilganda, master-shablonining o'zgartirilgan elementlari shablon bilan aloqansini yo'qotishi mumkin.

Kitobdagi sahifalar, boblar va abzatslarni raqamlash

Kitobdagi sahifalar, boblar va abzatslarni ketma-ket raqamlashini sozlash uchun **Book Page Numbering Options** (Ketma-ket raqamlash parametrlari) va **Update Numbering** (Raqamlashni yangilash) buyruqlari mavjud.

Sahifalar diapazoni **Book** (Kitob) palitrasida har bir hujjatning nomi oldida ko'rsatiladi. Odatiy bo'lib, InDesign kitobning hujjatlaridagi sahifalarni qo'shish yoki o'chirishda, shuningdek, hujjatlarni qayta tartibga solish, hujjatlarni qo'shish yoki o'chirish kabi kitob fayliga o'zgartirishlar kiritishda sahifalar va bo'limlarning raqamlashini yangilaydi (2.3.4-rasm). Avtomatik tarzidagi sahifa va bo'limlar raqamlashini yangilash parametrini o'chirib, kitobdagi raqamlashni qo'lda yangilashingiz mumkin.




2.3.4-rasm. Book palitrasidagi sahifalar raqamlanishi.

Agar hujjat mavjud bo'lmasa yoki ochilmasa, sahifa diapazoni o'rniga savol belgisi ko'rsatiladi "?" yo'qolgan hujjat bo'lishi kerak bo'lgan joydan, kitobning oxirigacha. Bu shuni anglatadiki, haqiqiy sahifalar diapazoni noma'lum. Raqamlashni yangilashdan oldin, yo'qolgan hujjatni o'chirish yoki almashtirish kerak. Hujjatning nomi yonidagi "Ishlatilayapti" belgisi, hujjat ish jarayonida boshqa foydalanuvchi tomonidan ochilganligini ko'rsatadi; raqamlashni yangilash uchun ushbu foydalanuvchi hujjatni yopishi kerak.

Toq va juft sahifadan boshlab raqamlash

Har bir hujjatda sahifalarni raqamlash tok va juft sahifadan boshlash mumkin. Buni **Book** (Kitob) palitrasining menyusidagi **Book Page Numbering Options** (Ketma-ket raqamlash parametrlari) buyrug'i yordamida amalga oshiramiz (2.3.5-rasm).



2.3.5-rasm. Book Page Numbering Options muloqot oynasi.

Bu erda raqamlash ketma-ket amalga oshiriladimi yoki har doim tok yoki juft sahifalardan boshlanganligini tanlashingiz mumkin.

Kitoblarda abzatlarning ketma-ket raqamlanishidan foydalanish

Rasmlar, jadvallar yoki boshqa elementlarning ro'yxatlari uchun ketma-ket raqamlashni ishlatish uchun, avval abzats stilida ishlatiladigan raqamli ro'yxatni aniqlash kerak. Raqamli ro'yxatining aniqlanilishi, kitobning barcha hujjatlari bo'yicha abzatlarning ketma-ket raqamlanishi bog'liq.

Buning uchun quyidagi kerak bo'ladi:

1. Kitob uchun stillar manbai sifatida ishlatiladigan hujjatni oching.
2. **Type > Bulleted & Numbered Lists > Define Lists** (Matn > Raqamli va belgili ro'yhatlar > Ro'yhatlarni aniqlash) buyruqni chaqiring.
3. Yangisini ro'yhatni o'rnatish yoki mavjud ro'yxatini tahrir qilish.
4. Bir vaqtning o'zida **Continue Numbers Across Stories** (Raqamlashni materiallar orasida davom etish) va **Continue Numbers from Previous Document in a Book** (Kitobdagi avvalgi hujjatdan davom eting).
5. Raqamlangan ro'yxatni ishlatadigan abzats stilini belgilang va uni har bir hujjatda tegishli matnga qo'llang.

Ro'yxatlar va abzatslar sozlamalarini sinxronlashtirish uchun **Synchronise Options** (Sinxronizatsiya parametrlari) dialog oynasida tegishli parametrlarni tanlashingiz va kitobni sinxronlashtirishingiz kerak.

Kitobni chop etish yoki faylini chiqarish

Kitob faylidan foydalanishning afzalliklaridan biri – bu tanlangan kitob hujjatlarini yoki butun kitobni chiqarish uchun bitta buyruqdan foydalanish qobiliyatidir.

Buni amalga oshirish uchun **Book** (Kitob) palitrasi kontekst menyusidan **Print Book** (Kitobni chop etish) buyrug'ini tanlang yoki palitrada kerakli hujjatlarni tanlab, **Print Selected Documents** (Tanlangan hujjatlarni chop etish) buyrug'ini tanlang.

Mundarijani yaratish

Mundarija jadvali kitob, jurnal yoki boshqa nashrning mundarijasini o'z ichiga oladi, hamda u illyustratsiyalar, reklama beruvchilar yoki fotosurat mualliflari ro'yxatini ko'rsatishi mumkin, nashr o'quvchisiga hujjat yoki kitobda kerakli ma'lumotlarni topishga yordam beradigan ma'lumotlarni o'z ichiga olishi mumkin. Birta kitobning ichida bir nechta mundarijalar bo'lishi mumkin, masalan, boblar ro'yxati va rasmlarning ro'yxati.

Har bir mundarija – bu alohida material bo'lib, sarlavha va elementlar raqamlar yoki alifbo bo'yicha tartiblangan ro'yxatidan iborat. Mundarija

elementlari, shu jumladan, sahifa raqamlari ham to'g'ridan-to'g'ri hujjat mazmunidan olinadi va istalgan vaqtda yangilanishi mumkin.

Mundarijani yaratish uchun siz uchta asosiy qadamni bajarishingiz kerak:

1. Mundarijani yaratish uchun asos bo'ladigan abzatslar stillarni yaratish va qo'llash.
2. Qaysi (qanday uslub bilan bezatilgan) abzatslar mundarijaga kiritilganligini va mundarijani formatlash uchun stillarni belgilang.
3. Mundarijani hujjatga qo'shing.

Izoh: Mundarijani tuzganda quyidagilar muhim:

- mundarija stillarini boshqa hujjatlardan yoki kitoblardan yuklash mumkin, bunda yaratilgan yangi mundarija huddi shunday parametrlarga va formatlashga ega bo'ladi (agar hujjatning abzats stilining nomlari manba hujjatining nomlari bilan mos kelmasa, import qilingan mundarijani o'zgartirish kerak bo'lishi mumkin);
- mundarijani formatlash uchun, sarlavha va mundarija elementlari uchun, shu jumladan ham tabulyatsiya va prefikslar uchun abzats stillarini yaratish kerak;
- sahifa raqamlari va belgilar uchun stil yaratish mumkin, qaysisi sahifa raqamlarini mundarija elementlaridan ajratib turadi. Misol uchun, agar kerak bo'lsa, sahifa raqamlari qalin yozuvida bo'lishi uchun, **Semibold** (Qalin) atributini o'z ichiga olgan belgilar stilini yaratishingiz va mundarijani yaratishda sahifa raqamlari uchun ushbu belgilar stilini tanlashingiz kerak bo'ladi.

Kitob yoki hujjatning mundarijasini yaratishdan oldin uni tayyorlash kerak:

1. Kitobdagi hujjatlar ro'yxati to'liq ekanligiga ishonch hosil qiling, barcha hujjatlar to'g'ri tartibda ro'yxatga olinadi, barcha sarlavhalar to'g'ri stilda formatlanadi.
2. Abzats stillari butun kitobda bir xil ekanligiga ishonch hosil qiling: bir xil nomlarga va turli parametrlarga ega bo'lgan stillar bilan hujjatlarni yaratmang, aks holda, stillar to'qnashuvi paydo bo'lishi mumkin va joriy stilning turidan foydalaniladi – bunisi sizning fikringiz ebo'lmasligi mumkin.


3. Barcha stillar kitobning barcha hujjatlarda mavjudligiga ishonch hosil qilish uchun, kitobni sinxronlashtiring.

Mundarijani yaratish

1. Avvalo, mundarijaga kiradigan abzatslarning stillarini aniqlang (sarlavhalar, kichik sarlavhalar va boshqalar) va ularning stillari kitobning barcha hujjatlarida bir xil bo'lishini tekshiring. Bizning misolimizda, bu **Header** stili.

2. 1-bob hujjatining boshiga yoki 2-bob hujjatining oxiriga mundarija uchun sahifani qo'shing. Odatda bu "Mundarija "deb ataladi.

3. **Layout > Table of Contents** (Maket > Mundarija) buyrug'ini chaqiring (2.3.6-rasm).



2.3.6-rasm. Layout>Table of Contents muloqot oynasi.

Agar mundarija stili aniqlangan bo'lsa, uni **TOC Style** (Mundarija stili) ro'yxatida tanlash mumkin.

Title (Sarlavha) — mundarija sarlavhasi (Masalan, "Mundarija" yoki "Rasimlar ro'yxati"). Uni formatlash uchun **Style** (Stil) ro'yxatidagi stilni tanlang - albatta, stil oldindan yaratilgan bo'lishi kerak.

Kitobdagi barcha hujjatlar uchun bitta mundarijani yaratish uchun **Include Book Documents** (Kitob hujjatlarini qo'shish) maydonida bayroqchani qo'ying.

Styles TOC (Mundarijadagi stillar) maydonning o'ng tomonidagi ro'yxatdan kerakli stillarni chap tomonga qo'shish bilan mundarija belgilanadi.

Tabiiyki, mundarijaning elementlari, ularni shakllantiradigan sarlavhalardan qo'ra farqli ravishda shakllantirilishi kerak. Odatda, mundarijani formatlash stili asosiy matn stiliga asoslanadi, ammo kitobning umumiy stili imkon bersa,

dastlabki sarlavhalarga asoslangan bo'lishi mumkin. Bunday holda, mundarijaning turli sathlari dastlabki sarlavhalardan va bir-biridan, birinchi navbatda, kegl va yozilishi bilan farq qiladi. Mundarijaning har bir ichki elementi uchun, stil **Entry Style** (Element stili) ro'yxatidan tanlanadi. Bu erda ham sahifa raqami mundarijaning elementiga qo'ra (ko'pincha keyin) joylashishi va qaysi belgi matn va raqam o'rtasidagi bo'shliqni (odatda tabulyatsiya) to'ldirishi aniqlanadi. Bu erda mundarijaning ichki elementlari stilida, tabulyatsiyani ko'p nuqta qilib qo'yish juda foydali, buning uchun **Paragraph Styles** (Abzats stili) palitrasida **Tab** ilovaning **Leader** maydonida "nuqta"ni kiriting. Agar kerak bo'lsa, oldindan yaratilgan ko'p nuqtalar va sahifa raqamlari uchun stillarni belgilashingiz mumkin — masalan, ularni qalin yoki boshqa rangli qilib yozish.

OK tugmasini bosgandan so'ng, yuklangan matnning kursori paydo bo'ladi. Kerakli sahifada sichqonchaning tugmasini bosish bilan mundarija o'zining freymida joylashtiriladi.


Izoh: Iloji bo'lsa, mundarijaning freymini hujjatdagi boshqa freymlar bilan bog'lamang. Mavjud mundarijani almashtirishda barcha materiallar yangilangan mundarija bilan almashtiriladi.

Bir nechta ro'yxatlar uchun mundarijani yaratish

Mundarijaning sozlamalari har bir to'plami mundarija stili sifatida saqlanishi mumkin va hujjat yoki kitobda turli mundarijalar uchun kerak bo'lsa, ishlatilishi mumkin. Misol uchun, mundarija uchun bir stilni, ikkinchisini esa suratlar yoki fotosuratlar mualliflari ro'yxati uchun ishlatishingiz mumkin. Mundarija stilini yaratish uchun, barcha parametrlarni sozlashning oxirida **Save Style** (Stilni saqlash) tugmasini bosing va stil nomini bering.

Boshqa hujjatdan mundarija stillarni import qilish

Boshqa hujjatlardan tayyor stillar **Layout>Contents Styles Table** (Maket> Mundarija stillari) dialog oynasining **Load** (Yuklab olish) tugmasini bosish bilan import qilinadi (2.3.7-rasm).



2.3.7-rasm. Layout>Contents Styles Table dialog oynasi.

Mundarijani yangilash va tahrirlash

Mundarija – bu hujjatning mazmuning "rasmi" desak bo'ladi. Hujjatda sahifa raqamlari, sarlavhalar yoki mundarija elementlari bilan bog'liq boshqa narsalar o'zgargan bo'lsa, uni yangilash kerak, bunisi **Layout > Update TOC** (Maket > Mundarijani yangilash) buyrug'i bilan bajarladi.

Mundarijani o'zgartirish ma'nosiz, chunki u tezda shakllanadi va faqat hujjat (kitob) va faqat uning sozlamalarini aks ettiradi.

Mundarija sarlavhasini formatlashini, mundarija elementlarini yoki sahifa raqamlarini o'zgartirish uchun, ular bilan bog'liq bo'lgan abzatslar stillarini yoki belgilarini o'zgartirishi kerak; sahifa raqamini o'zgartirish uchun (masalan, 1, 2, 3 yoki i, ii, iii) kitobning hujjatlariga tegishli o'zgartirishlar kiritiladi.

Har bir mundarija alohida yangilanadi.[2]

Xulosa

II bobda ko'p sahifali hujjat, stillar yaratish va undan foydalanish, kitoblar va kutubxonalar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Bob bo'yicha keltirib o'tilgan ma'lumotlarning natijasi asosida qilingan amaliy ishlar nashriyot jarayonining ishlarini osonlashtirish uchun xizmat qiladi.

XOTIMA

Bitiruv malakaviy ishning I bobida Adobe InDesign dasturi bilan tanishish, obyektlar, geometrik figuralar, matnlar bilan ishlash bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Har bir bo'limning imkoniyatlari keng va batafsil tushuntirib berilgan. Har bir bo'limda tushuntirilgan nazariyalar rasmlar asosida yanada tushunarli qilib keltirib o'tilgan.

II bobda ko'p sahifali hujjat, stillar yaratish va undan foydalanish, kitoblar va kutubxonalar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Bob bo'yicha keltirib o'tilgan ma'lumotlarning natijasi asosida qilingan amaliy ishlar nashriyot jarayonining ishlarini osonlashtirish uchun xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. 2017 yil 20 aprel. Toshkent.
2. Агапова И. В. Самоучитель Adobe InDesign CS2. — СПб.: БХВ-Петербург, 2006. — 304 с.: ил.
3. Левковец Л. Б. Adobe InDesign CS4. Базовый курс на примерах. — СПб.: БХВ-Петербург, 2009. — 560 с.: ил.
4. Агапова И. В. Самоучитель Adobe InDesign CS4. — СПб.: БХВ-Петербург, 2009. — 336 с.: ил. + (CD-ROM).
5. Родионов В. И. Подготовка электронных публикаций в InDesign CS6. — СПб.: БХВ-Петербург, 2013. — 224 с.: ил. — (Мастер).
6. Борисов М. А. Скрипты в InDesign: руководство для умных дизайнеров и ленивых верстальщиков. — СПб.: БХВ-Петербург, 2008. — 368 с.: ил. + CD-ROM — (Мастер).
7. Adobe InDesign CS5 : Официальный учебный курс / [пер. с англ. М. Райтмана]. — М. : Эксмо, 2011. — 480 с. : ил. + 1 CD. — (Официальный учебный курс).
8. Adobe InDesign CS5 Bible. 2010 y. Published by Wiley Publishing, Inc. 940 pages.
9. Adobe InDesign CS6 Classroom in a Book. 2012 y. Printed and bound in the United States of America. 457 pages.